

YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA HUQUQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Xamroyeva Kamola Ilhomjon qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Davlat Boshqaruv huquqi yo‘nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11200049>

Annotsatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni oldini olishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati tahlil etilgan. Qolaversa, yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning sabablari yoritilib, unga tasir etuvchi omillar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Huquqbuzarlik, g‘ayri-ijtimoiy xatti-harakatlar, deviant xulq-atvor, yakka tartibdagi profilaktika, maxsus profilaktika, nazoratsiz bola.

THE IMPORTANCE OF LEGAL EDUCATION IN PREVENTING YOUTH CRIMINALS

Abstract. This article analyzes the importance of legal education in preventing crimes committed among young people today. In addition, the causes of offenses and crimes committed among young people were highlighted, and the factors affecting them were studied.

Key words: Delinquency, antisocial behavior, deviant behavior, individual prevention, special prevention, unsupervised child.

ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ МОЛОДЕЖНЫХ ПРЕСТУПНИКОВ

Аннотация. В данной статье анализируется значение юридического образования в предупреждении преступлений, совершаемых среди молодежи сегодня. Кроме того, были освещены причины правонарушений и преступлений, совершаемых среди молодежи, изучены факторы, влияющие на них.

Ключевые слова: Правонарушения, антиобщественное поведение, девиантное поведение, индивидуальная профилактика, специальная профилактика, ребенок без присмотра.

Bugungi kunda mustaqil yurtimiz kun sayin chiroy ochib gullab yashnab bormoqda, minglab millionlab o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. So‘ngi 5 yilni oladigan bo‘lsak yurtimizda har bir inson uchun ko‘plab shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Ayniqsa mustaqil O‘zbekistonda yoshlarga bo‘lgan e’tibor, yaratilgan shart-sharoit va berilayotgan imkoniyatlarni chek chegarasi

yo‘q. Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan yoshlarga har sohada xoh talim xoh sport v.k barcha yo‘nalishlarda cheksiz imkoniyatlar yaratib berilayotganligi bu yurtimiz yoshlariga nisbatan berilgan katta ishonchdan dalolat beradi, zeroki yurt kelajagi yoshlar qo‘lida. Ammo ming afsuski yurtimizda ana shunday yaratilgan imkoniyatlardan foydalanish o‘rniga qimmatbaho vaqtlarini bekorchi va yod narsalarga sarflab buning oqibatida huquqbuzarlik va jinoyat sodir etib kelayotgan voyaga yetmaganlar va yoshlar ham uchrab turibdi. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlikni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishni eng avvalo oiladan boshlash kerak, oilani mustahkamlash kerak, qadim-qadimdan ota-bobolarimizdan o‘tib kelayotgan bir naql bor: “Vatan ostonadan boshlanadi”. Farzand oilada dunyoga kelgan vaqtdan boshlab shu oilaning tarbiyasi ila kamol topib boradi, shu oilada muhit qanday bo‘lsa shu muhitda o‘sadi. Shu boisdan avvalo oilani mustahkam qo‘rg‘onga aylantirmoq lozim, farzand katta bo‘lgani sari ota-onasi u uchun idial shaxs sifatida ko‘rina boshlaydi, ota-ona oilada o‘qimishli, ziyoli shaxs bo‘ladigan bo‘lsa farzand ham ulardan o‘rnak olib boradi. Biroq bugungi kunda jamiyatimizning ayrim oilarida ota-onaning mavjud uquvsizligi, farzandga bo‘lgan etiborsizligi, oiladagi o‘zaro ichki nizolar, ota-onaning kelishmovchiligi, kunda oilada takrorlanib kelayotgan janjallar natijasida ushbu oiladagi farzandlar tashqi muhitga qarab qochishni boshlaydilar va tashqi muhitdagi ayrim illatlarga qo‘shilib qolishlari natijasida asta-sekinlik bilan oxiri berk bo‘lgan qorong‘u yo‘lak sari yura boshlaydilar, buning oqibatida esa huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishni boshlaydilar.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo‘lgan joyda baraka va rivojlanish bo‘ladi. E’tirof etish kerakki, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni bir qismi tayin bir o‘qish yoki ish joyiga ega bo‘lmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Buning oldini olishda aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan jinoyatchilikni oldini olishda mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 19.01.2022 yildagi PQ 92-son qarori¹ bilan har bir maxallada “Yoshlar yetakchisi” lavozimi joriy etilib ularga mahalladagi har bir yosh bilan individual o‘rganish olib borgan holda bandligi ta’minlanmagan yoshlarni istak va qiziqishlarini inobatga olgan holda yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ish bilan ta’minlash kabi bir qator aniq vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 24 dekabr

¹ LEX.UZ <https://www.lex.uz>. 19.01.2022 y

kunidagi PQ 4075-sonli qarori bilan har bir mahallada “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarini tashkil etilib, ushbu guruh tarkibiga²:

-mahalladagi muddatli harbiy xizmatni o‘tash niyatida mudofaa ishlari bo‘yicha tuman bo‘limiga murojaat qilgan harbiy xizmatga chaqiriluvchilar;

-respublika oliy harbiy ta’lim muassasalariga, shuningdek ichki ishlar organlarining ta’lim muassasalariga kirish istagini bildirgan nomzodlar;

-ichki ishlar organlarida xizmat qilish istagini bildirgan nomzodlar orasidan shakllantirish nazarda tutilib, ushbu guruhga a’zo bo‘lgan yoshlar bilan mahallada bu mening uyim, bu mening maxallam, bu mening vatanim, men mahallamda jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymayman shiori ostida tungi vaqtda profilaktika inspektori bilan birga belgilangan yo‘nalish bo‘yicha umumiy 100 soatdan kam bo‘lmagan vaqt miqdorida patrullik qilgan yoshlarga profilaktika inspektori va mahalla raisi bilan birgalikda xizmatga, o‘qishga tanlov o‘tkazishda inobatga olinadigan tavsiyanomalar berilishi bu ham yoshlar uchun katta imkoniyatlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.



² Ганиев Ш.А. Ахлоққа қарши ҳуқуқбузарликлар учун маъмурий жавобгарликни такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б. 198.

Yuqorida belgilab o'tilgan ushbu davlat organlarining har birining vazifalari aniq belgilab berilgan bo'lib, ushbu davlat organlari tomonidan bugungi kunda qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan sport va talim yo'nalishida bugungi kunda yoshlarimiz Respublika miqyosida o'tkazilayotgan turnerlar, nafaqat respublika balki Osiyo davlatlari hamda jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarib kelishmoqda, bu esa ushbu davlat organlari tomonidan ko'plab samarali ishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham bugungi kunga kelib yoshlarimiz tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyat sodir etish xolatlari kamayishiga erishildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ammo ana shunday yutuqlarimiz bilan faxrlanib turgan bir vaqtning o'zida ming afsuski ayrim yoshlarimiz o'rtasida bugungi kunda qonun buzish holatlari, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish holatlari va eng achinarlisi yoshlarimiz tomonidan jinoyat sodir etish holatlari haligacha davom etib kelmoqda.

Jumladan yoshlarimiz tomonidan bungi kunda:

guruh-guruh bo'lib maishatbozlik qilish;

tungi vaqtlarda ko'ngilochar joylarda bo'lib qarovsiz holatda qolib ketish;

-tungi vaqtlarda nazoratsiz holda ko'chalarda bemaqsad yurgan holda har-xil turdagi huquqbuzarlik sodir etilish holatlariga qo'shib qolish;

-giyohvandlik va psixotrop moddalarni istemol qilish uning noqonuniy aylanmasiga aralashish;

-o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida katta miqdorda pul topish evaziga o'g'irlik va firibgarlik qilish holatlari;

-ota-onalarni farzandga bo'lgan etiborsizligi va farzandini qarovsiz qoldirishi oqibatida voyaga yetmagan bolalar tomonidan avtomobil boshqarish uchun huquq beruvchi haydovchilik guvohnomasi yo'q bo'la turib yashash xonadonida mavjud bo'lgan avtomashinani boshqarib ko'chaga chiqib ketishi va yo'llarda odam o'limi bilan bog'liq yo'l transport hodisalarini sodir etayotganlari;

-ko'chalarda guruhbozlik qilish, ko'pchilik bo'lib o'zaro sama sudlar qilish va buning natijasida og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlarni sodir etilishi kabi holatlar bugungi kunda yoshlarimiz o'rtasida uchrab turganligi ming afsuski haqiqat³.

Shu boisdan yoshlar tomonidan sodir etilayotgan bunday huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishda bugungi kunda huquqiy tarbiyaning yetishmasligi bilan izohlashimiz mumkin.

³ Хўжакулов С.Б. Хуқукбузарликлар умумий профилактикасини такомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 2

Huquqiy tarbiya – jamiyat a’zolari madaniyati va ongiga huquqiy bilimlarni turli ta’sir vositalari orqali uzluksiz singdirib borish jarayonini ifodalovchi tushuncha. Huquqiy tarbiya vositalariga huquqiy targ‘ibot, huquqiy ta’lim va amaliyot, o‘zini o‘zi tarbiyalash kiradi. Huquqiy tarbiya keng ma’noda, jamiyat a’zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, shaxs ongiga uning huquq va burchlarini singdirish jarayonini anglatadi. Huquqiy tarbiya tor ma’noda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniy saviyasi darajasini oshirishga xizmat qiladigan usul va vositalarni ifoda etadi. Huquqiy tarbiyaning davlat va jamiyat taraqqiyotida hamda fuqarolik jamiyati asoslarini qurishdagi o‘rni shaxsning, fuqarolarning huquqiy bilimi va ko‘nikmalari darajasi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiya mavjud tuzum, davlat va hokimiyat organlari, mahalla, oila, tashkilotlar va ularning faoliyati orqali amalga oshadi. Huquqiy tarbiya ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanib, uning muammolari huquqshunoslik, pedagogika va psixologiya, milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, etika va estetika kabi fanlar doirasida tadqiq etiladi. Huquqiy tarbiya samaradorligi oila, mahalla, ta’lim-tarbiya muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi faoliyatining o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiya shakllantirishda OAV, radio, TV, huquqiy mavzulardagi kechalar, davra suhbatlari ham muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi fuqarolarning birinchi galda yoshlarning huquqiy ongi va tafakkurini o‘stirish, ularni har jihatdan barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi⁴.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish jarayonida aholi, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida amalga oshirilayotgan huquqiy ta’lim mazmuni, darajasi, shuningdek, ta’lim muassasalarining bu boradagi o‘rni o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’lim muassasalari huquqiy bilimlarni berish sohasida katta imkoniyatlarga ega. Bu sohada boy tajriba ham mavjud bo‘lib, bu huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonining tezlashuvini ta’minlaydi. Davlat va jamiyat boshqaruvida mustaqillikka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy nuqtai nazari taraqqiyotga xizmat qiladigan, milliy manfaatlariga zid bo‘lmagan, tub aholining boshqa millat va elatlar bilan teng huquqlilik asosidagi hamkorligini qaror toptirishga rag‘batlantiruvchi ilg‘or demokratik hamda insonparvar g‘oyalarning ifodalanishini ta’minlashdan iborat. Respublikamizda yoshlarda qonunlarning jamiyat hayoti va insoniy munosabatlarning mo‘tadil kechishini ta’minlovchi yetakchi omil ekanligi to‘g‘risidagi tushunchaning qaror topishiga erishish, ularda huquqiy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki extiyoj, qiziqishlarni yuzaga keltirish, bu sohada muayyan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish

⁴ Kriminologiya. Maxsus qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 563.

huquqiy ta'lim samaradorligining ta'minlanishiga bog'liq. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Huquqiy tarbiya yoshlarga ularning xatti-harakatlari va jamiyatini tartibga soluvchi qonunlarni tushunishga yordam beradi. Nima qonuniy va noqonuniy ekanligini bilib, ular ongli qarorlar qabul qilishlari va huquqbuzarlik sodir etilishini oldini oladi.

- Huquqiy tarbiya qonunga hurmat va axloqiy xulq-atvor qadriyatlarini singdiradi. Yoshlar boshqalarning huquqlarini hurmat qilish va jamiyat normalariga rioya qilish muhimligini o'rganadilar, bu esa huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik ehtimolini kamaytiradi.

- Huquqiy tarbiya yoshlarga huquqiy resurslar va qo'llab-quvvatlash tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Agar ular huquqiy muammolar yoki kamsitishlarga duch kelsalar, qayerdan yordam so'rashni o'rganadilar, bu esa o'zlarini chekka his qilishlariga yoki muammolarini hal qilish uchun noqonuniy usullarga murojaat qilishlariga to'sqinlik qiladi.

- Huquqiy tarbiya huquqbuzarlik sodir bo'lishidan oldin oldini olish uchun erta aralashuv vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Huquqiy ta'lim yoshlarga o'z qilmishlarining huquqiy oqibatlarini o'rgatish va ijobiy tanlov qilish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali ularni birinchi navbatda huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

- Huquqiy tarbiya yoshlarda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rag'batlantiradi.

- Ommaviy axborot vositalarini keng iste'mol qilish davrida huquqiy tarbiya tanqidiy media savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantiruvchi komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Yoshlarni ommaviy axborot vositalarida jinoyatchilik, adolat va huquqiy masalalarni tanqidiy baholashga o'rgatish orqali huquqiy tarbiya stereotiplar, noto'g'ri ma'lumotlar va shov-shuvlarga qarshi turishga yordam beradi, huquqiy tizimning murakkabliklari va uning jamiyatga ta'sirini yanada nozikroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, huquqiy tarbiya - huquqiy savodxonlikni oshirish, shaxs va jamiyatning imkoniyatlarini kengaytirish, tizimli adolatsizliklarga barham berish, qonuniylik va inson huquqlariga hurmat madaniyatini yuksaltirish orqali yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ko'p qirrali vosita bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy tarbiyaning keng qamrovli dasturlariga sarmoya kiritish orqali jamiyatlar yoshlar rivojlanishi, ijobiy hissa qo'shishi va huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasliklari uchun sharoit yaratishi mumkin.

REFERENCES

1. LEX.UZ <https://www.lex.uz>. 19.01.2022 y

2. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Y. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 175.
3. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak, deb hisoblaydi ijtimoiy faollar <https://iiv.uz/ru/news>
4. Kriminologiya. Maxsus qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 563.
5. Ганиев Ш.А. Ахлоққа қарши ҳуқуқбузарликлар учун маъмурий жавобгарликни такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2016. – Б. 198.
6. Хўжакулов С.Б. Ҳуқуқбузарликлар умумий профилактикасини такомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 2
7. Шарипов С.Т., Турсунова М.М. (2022). Меры профилактики и борьбы с насильственной молодежной преступностью. Вестник науки и образования, (12- 7), 79-84.
8. Khatamov B.K. (2022). Personality of a juvenile delinquent. Innovative science. No.2. pp. 31.